



O'ZBEKISTONDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: BUDJET DASTURLARINI BAHOLASH MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Pulatov Dilshod

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq va bojxona
ma'murchiligini takomillashtirish, fiskal tahlillar instituti
ORCID: 0000-0002-7430-3608
pulatovdilshod56@gmail.com*

Abdug'aniyev Uchqun

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi
Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq va bojxona
ma'murchiligini takomillashtirish, fiskal tahlillar instituti
ORCID: 0000-0003-1333-0554
uchqunbek90994@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish jarayonida natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimining o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda amaldagi normativ-huquqiy baza asosida budjet dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va baholash mexanizmlari o'rganilib, ularning samaradorlikka ta'siri baholanadi. Shu asosda budjet dasturlarining natijadorligini oshirish, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish hamda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni bosqichma-bosqich rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish, dasturiy budjetlashtirish, budjet dasturlari, monitoring, baholash, ichki audit, mustaqil baholash, davlat moliyasini boshqarish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПРОГРАММНОГО БЮДЖЕТИРОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ОЦЕНКИ БЮДЖЕТНЫХ ПРОГРАММ

Пулатов Дилшод

*Институт сокращения доли теневой экономики, совершенствования налогового и
таможенного администрирования и фискальных исследований при
Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан*

Абдуганиев Учқун

*Институт сокращения доли теневой экономики, совершенствования налогового и
таможенного администрирования и фискальных исследований при
Министерстве экономики и финансов Республики Узбекистан*

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение системы бюджетирования, ориентированного на результат, в процессе совершенствования управления государственными финансами в Узбекистане. В исследовании на основе

действующей нормативно-правовой базы изучаются механизмы формирования, мониторинга и оценки бюджетных программ, а также оценивается их влияние на эффективность бюджетного процесса. На этой основе разработаны научно обоснованные предложения по повышению результативности бюджетных программ, совершенствованию системы мониторинга и оценки, а также по поэтапному развитию бюджетирования, ориентированного на результат.

Ключевые слова: бюджетирование, ориентированное на результат, программное бюджетирование, бюджетные программы, мониторинг, оценка, внутренний аудит, независимая оценка, управление государственными финансами.

IMPROVING THE PROGRAM BUDGETING SYSTEM IN UZBEKISTAN: DIRECTIONS FOR DEVELOPING MECHANISMS FOR EVALUATING BUDGET PROGRAMS

Pulatov Dilshod

Institute for Reducing the Shadow Economy, Improving Tax and Customs Administration, and Fiscal Studies under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan

Abduganiyev Uchkun

Institute for Reducing the Shadow Economy, Improving Tax and Customs Administration, and Fiscal Studies under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the role and significance of results-oriented budgeting in the process of improving public financial management in Uzbekistan. Based on the current regulatory and legal framework, the study examines the mechanisms for formulating, monitoring and evaluating budget programs and assesses their impact on budgetary efficiency. On this basis, scientifically grounded proposals are developed to improve the effectiveness of budget programs, enhance the monitoring and evaluation system, and ensure the gradual development of results-oriented budgeting.

Keywords: results-oriented budgeting, program budgeting, budget programs, monitoring, evaluation, internal audit, independent evaluation, public financial management.

Kirish.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish, budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda fiskal intizomni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat xarajatlarini rejalashtirish va ijrosini tashkil etishda natijaga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu borada davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari "O'zbekiston — 2030" strategiyasi hamda 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida o'z aksini topgan bo'lib, unda budjet mablag'larining samaradorligini oshirish va natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish muhim vazifa sifatida qayd etilgan.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi davlat moliyasini boshqarishda resurslar, faoliyat, natija va ta'sir o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Xalqaro amaliyotda mazkur yondashuv budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoring qilish, baholash va keyingi budjet qarorlarini qabul qilish bilan uzviy bog'langan yagona boshqaruv tizimi sifatida qaraladi. Shu ma'noda, dasturiy budjetlashtirish faqat texnik budjet vositasi emas, balki davlat siyosatini natija asosida boshqarish usuli hisoblanadi.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda zarur normativ-huquqiy asos yaratildi. Xususan, davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha strategik hujjatlar, budjet dasturlarini ishlab chiqish va baholashga oid nizomlar hamda yillik budjet hujjatlarida dasturiy

budjetlashtirish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, amaldagi tizim tahlili shuni ko'rsatadiki, budjet dasturlarini baholash hozircha ko'proq monitoring va ichki auditga tayangan bo'lib, mustaqil baholash, aniq metodologiya hamda baholash natijalarining budjet qarorlariga ta'siri yetarli darajada rivojlanmagan.

Shu nuqtayi nazardan, maqolaning maqsadi O'zbekistonda dasturiy budjetlashtirish tizimi doirasida budjet dasturlarini baholash mexanizmlarining amaldagi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va xorijiy tajriba asosida ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish davlat xarajatlarini rejalashtirish va taqsimlashda mablag' hajmidan ko'ra erishiladigan natijalarga urg'u beradigan yondashuvdir. OECD ushbu tizimni "budjet qarorlarini qabul qilishda faoliyat natijalari to'g'risidagi axborotdan tizimli foydalanish" deb ta'riflaydi. Uning maqsadi budjet jarayonida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, davlat xarajatlarining maqsadi va erishilgan natijalar haqida hukumat, parlament va jamoatchilikka aniq ma'lumot berishdan iborat.

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish an'anaviy budjetlashtirishdan, avvalo, budjet mablag'larini rejalashtirish mezonini bilan farq qiladi. An'anaviy yondashuvda asosiy e'tibor xarajatlarning moddalari, ya'ni qancha mablag' ajratilishi va u qaysi yo'nalishlarga sarflanishiga qaratiladi. Bunda budjet ijrosi ko'proq smeta va moliyaviy intizom nuqtayi nazaridan baholanadi. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda esa asosiy savol mablag' qancha sarflangani emas, balki ushbu mablag'lar evaziga qanday natijaga erishilgani bilan belgilanadi.

Shuningdek, an'anaviy budjetlashtirish xarajatlarning kirim-chiqim tomonini nazorat qilishga ko'proq yo'naltirilgan bo'lsa, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish resurslar, faoliyat, mahsulot, natija va ta'sir o'rtasidagi bog'liqlikni hisobga oladi. Shu sababli unda budjet dasturlari strategik maqsadlar bilan bog'lanadi, maqsadli indikatorlar belgilanadi va davlat organlari faoliyati faqat mablag' o'zlashtirish bilan emas, balki erishilgan outcome orqali baholanadi. Xalqaro valuta jamg'armasining tadqiqotlarida ham Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish modelida aynan dasturlarni aniq tasniflash, o'lchab bo'ladigan ko'rsatkichlar tizimi va natijalarga asoslangan boshqaruv zarurligini ta'kidlaydi (Robinson, 2011)).

Bundan tashqari, an'anaviy budjetlashtirishda hisobdorlik, asosan, mablag'larning maqsadli sarflanishi va moliyaviy qoidalarga rioya etilishi bilan cheklanadi. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda esa hisobdorlik mazmunan kengayadi: davlat organi nafaqat ajratilgan mablag'ni sarflangani, balki ushbu mablag' hisobiga qanday xizmat, qanday mahsulot va qanday ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishganini ham asoslab berishi lozim. OECD materiallarida bu yondashuv hukumat, parlament va jamoatchilik uchun shaffoflik hamda javobgarlikni kuchaytiruvchi instrument sifatida ko'rsatiladi. Qo'shimcha ravishda, an'anaviy budjetlashtirish ko'proq qisqa muddatli moliyaviy boshqaruvga xos bo'lsa, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish o'rta va uzoq muddatli strategik rejalashtirish bilan chambarchas bog'liq bo'ladi (Abduganiyev, 2026).

Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning samarali ishlashi, avvalo, budjet dasturlarining to'g'ri tasniflanishi va ularning strategik maqsadlar bilan uzviy bog'lanishiga bog'liq. Jahon banki qo'llanmalarida ta'kidlanishicha, dasturiy tasniflash budjet mablag'larini alohida xarajat moddalari bo'yicha emas, balki aniq vazifa, xizmat va natijalar kesimida ko'rish imkonini beradi. Bu esa cheklangan davlat resurslarini ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish va budjet qarorlarini dalillarga asoslash uchun zarur institutsional asosni yaratadi (World bank, 2013).

Biroq xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etish faqat indikatorlar va dastur pasportlarini ishlab chiqish bilan cheklanmaydi. OECD mamlakatlari tajribasida performance information budjet jarayoniga kiritilgan bo'lsada, uning sifati, amaliy qo'llanishi va qaror qabul qilishga real ta'siri eng murakkab masalalardan biri

sifatida baholanadi. Ayniqsa, ortiqcha ko'p indikatorlar, sifatsiz ma'lumotlar, maqsadlarni noto'g'ri o'lchash va ko'rsatkichlarga "moslashib olish" xavfi ushbu tizimning samaradorligini pasaytirishi mumkinligi qayd etiladi (Incentivising Performance, 2018).

Shu nuqtayi nazardan, monitoring, audit va baholash tushunchalarini o'zaro farqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Monitoring, asosan, budjet dasturi ijrosining joriy holatini kuzatish va reja ko'rsatkichlarining bajarilishini nazorat qilishga qaratiladi. Audit esa mablag'larning qonuniy, maqsadli va tartibli sarflanishini tekshiradi. Baholash esa bundan kengroq mazmunga ega bo'lib, dastur natijadorligi, samaradorligi va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi. Jahon banki materiallarida aynan performance budgeting tizimi to'liq ishlashi uchun monitoring natijalari, audit xulosalari va evaluation ma'lumotlari bir-birini to'ldiruvchi yagona boshqaruv sikliga aylanishi zarurligi ko'rsatilgan (World bank) Demak, natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning mohiyati faqat moliyaviy resurslarni qayta guruhlashda emas, balki davlat boshqaruvida "mablag' sarflash"dan "natijaga erishish" maqsadiga o'tishda namoyon bo'ladi (Curristine T. Performance Information, 2005).

MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlarining tadqiqotlari natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim instrumenti sifatida baholaydi. Xususan, N. P. Molchanova Qozog'iston tajribasini tahlil qilar ekan, budjetni shakllantirishda metodik yondashuvlarning takomillashuvi, o'rta muddatli rejalashtirish va natijalarga bog'langan boshqaruv mexanizmlarining budjet intizomini kuchaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi (Molchanova,2016) Z. D. Muxitdinov va Sh. Sh. Abdullayev esa dasturiy-maqsadli metod davlat budjetini shakllantirishda mablag'larni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish, xarajatlarni aniq maqsad va vazifalar bilan bog'lash hamda budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar (Muxitdinov, 2020). Shu bilan birga, O'zbekiston amaliyotiga oid ayrim tadqiqotlarda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning sektorlar kesimidagi imkoniyatlari va institutsional cheklovlari ham yoritilgan. Jumladan, J. Ataniyazov va A. Allakuliyev maktab ta'limi sohasida o'rta muddatli natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishni joriy etish ta'lim xizmatlari sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni kuchaytirishini qayd etadilar (Ataniyazov, 2022). Z. X. Srojiddinova O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimining isloh qilinishi sharoitida budjet boshqaruvini modernizatsiya qilish, hisobdorlikni kuchaytirish va natijadorlikka asoslangan yondashuvlarni kengaytirish zarurligini asoslaydi (Sirojiddinova, 2021). B. Nurmukhamedova va G. Urunova esa tashabbusli budjetlashtirishning huquqiy jihatlarini tahlil qilib, budjet jarayonida ochiqlik, fuqarolar ishtiroki va javobgarlik mexanizmlarining kuchayishi zamonaviy budjet boshqaruvining muhim tarkibiy qismi ekanini ko'rsatadilar. Mazkur tadqiqotlar birgalikda O'zbekistonda natijaga yo'naltirilgan va dasturiy budjetlashtirishni rivojlantirish uchun normativ, institutsional hamda metodologik asoslarni yanada takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida O'zbekistonda dasturiy budjetlashtirish va davlat moliyasini boshqarishni tartibga soluvchi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek mazkur sohadagi ilmiy adabiyotlar va xorijiy tajriba o'rganildi. Qiyosiy tahlil asosida amaldagi yondashuv xalqaro amaliyotdagi monitoring, audit va baholash mexanizmlari bilan solishtirildi, tizimli yondashuv yordamida esa budjet dasturlarini boshqarish jarayoni rejalashtirish, moliyalashtirish, monitoring, audit, baholash va hisobdorlikning o'zaro bog'liq tizimi sifatida ko'rib chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda dasturiy budjetlashtirishning normativ-huquqiy bazasi bir nechta o'zaro bog'liq darajalardan tashkil topadi. Ushbu baza, avvalo, budjet jarayonining umumiy huquqiy

asoslarini belgilovchi “Budjet kodeksi”, davlat moliyasini boshqarish va natijadorlikka yo‘naltirilgan yondashuvni belgilovchi “strategik hujjatlar”, budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoring qilish va baholashning aniq tartibini o‘rnatuvchi “maxsus nizom”, shuningdek, har yilgi budjetni shakllantirish va ijro etish jarayonida dasturiy yondashuvni amaliyotga joriy etuvchi yillik budjet qonunlari, Prezident va Hukumat qarorlaridan iborat.

Birinchi va eng umumiy huquqiy asos “O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi” hisoblanadi. Mazkur kodeks budjet tizimi, budjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlari, Budjetnomani ishlab chiqish, Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasini tayyorlash va budjet ijrosini tashkil etish bilan bog‘liq umumiy qoidalarni belgilaydi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining Budjetnoma va Davlat budjeti to‘g‘risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish jarayonini tashkil etishi kodeks darajasida mustahkamlangan bo‘lib, bu dasturiy budjetlashtirishning keyingi barcha normativ hujjatlari uchun asosiy institutsional platformani yaratadi. Budjetnoma ham aynan Budjet kodeksining 96-moddasi asosida ishlab chiqilishi alohida qayd etilgan.

Dasturiy budjetlashtirishning strategik-siyosiy yo‘nalishini belgilovchi navbatdagi qatlam — bu “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni 2025-yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi bilan bog‘liq hujjatlardir. 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son hujjat “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2025-yilda amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashtirib beradi; u bevosita dasturiy budjetlashtirish tartibini belgilamasada, strategik rejalashtirish, samaradorlik ko‘rsatkichlari va budjet mablag‘larining maqsadli yo‘naltirilishi uchun yuqori darajadagi siyosiy asos vazifasini bajaradi. Shu ma‘noda, dasturiy budjetlashtirish O‘zbekistonda mustaqil, alohida texnik islohot emas, balki kengroq strategik boshqaruv modelining tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda.

Mazkur strategik yo‘nalishning davlat moliyasi tizimidagi aniq ifodasi “Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori” bilan tasdiqlangan “2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi” da mujassam. Ushbu strategiya budjet xarajatlari va davlat investitsiyalarining natijadorligini oshirish, natijadorlikka asoslangan budjet tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish, fiskal axborot sifati va hisobdorligini oshirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Shuningdek, strategiyada budjet jarayonini raqamlashtirish, budjet jarayoni ishtirokchilarining salohiyatini kuchaytirish hamda vazirlik va idoralar xodimlari uchun budjet so‘rovlari va o‘rta muddatli budjetni tayyorlash bo‘yicha o‘quv dasturlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Shu bois 210-son qaror dasturiy budjetlashtirishni O‘zbekistonda fiskal boshqaruv islohotlarining markaziy komponenti sifatida mustahkamlaydi.

Dasturiy budjetlashtirishning bevosita huquqiy asosini esa “Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-yanvardagi 4-son qarori” bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to‘g‘risida Nizom” tashkil etadi. Aynan shu Nizom budjet dasturini ishlab chiqish, uning ijrosini ta‘minlash, hisobotini tuzish va baholashning sxemasini belgilaydi. Nizomga muvofiq budjet dasturlari vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi va Iqtisodiyot hamda moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Aynan 4-son Nizom O‘zbekistonda dasturiy budjetlashtirishni amaliyotga joriy etuvchi asosiy tashkiliy hujjat hisoblanadi.

Mazkur tizimning yillik budjet jarayonidagi huquqiy mustahkamlanishi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonun orqali amalga oshirilgan. Ushbu qonunda birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratilgan mablag‘lardan foydalanish tartibi, rivojlantirish dasturlari o‘rtasida mablag‘larni qayta taqsimlash imkoniyati va, eng muhimi, vazirliklar hamda idoralar ichki audit xizmatlari tomonidan baholangan rivojlantirish dasturlarining samaradorligi natijalari to‘g‘risidagi hisobotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etish majburiyati belgilangan. Bu norma

dasturiy budjetlashtirishni ilk bor yillik budjet qonuni darajasida natijadorlik va ichki audit hisobotlari bilan bog'laydi.

Ushbu qonunning amaliy ijro mexanizmi Prezidentning 2025-yil 26-dekabrda PQ-388-son qarori orqali yanada konkretlashtirilgan. Qarorda Iqtisodiyot va moliya vazirligiga birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning maqsadli indikatorlari hamda budjet dasturlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni Qonunchilik palatasiga kiritib borish vazifasi yuklatilgan. Bundan tashqari, ayrim vazirlik va idoralarning 2026–2028-yillar uchun budjet va budjetdan tashqari mablag'lari budjet dasturlari kesimida ishlab chiqilgani ma'lumot uchun qabul qilingan, mazkur budjet dasturlarini tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish muddatlari belgilangan, shuningdek, dasturiy budjetlashtirish joriy etilayotgan vazirlik va idoralar tuzilmasida budjet dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va ijrosini muvofiqlashtirish bo'limlarini tashkil etish nazarda tutilgan. Bu hujjat dasturiy budjetlashtirishni institutsional jihatdan kuchaytiruvchi muhim normativ bosqichdir.

Dasturiy budjetlashtirishning o'rta muddatli fiskal rejalashtirishdagi ifodasi 2026–2028-yillarga mo'ljallangan Budjetnomada o'z aksini topgan. Budjetnomada natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish qamrovi bosqichma-bosqich kengaytirilishi va 2030-yilgacha to'liq dasturiy budjetlashtirish mexanizmiga o'tilishi belgilangan. Hujjatda har bir budjet dasturida maqsadli indikatorlar belgilanishi, ular kelgusi uch yil uchun ishlab chiqilishi, budjet dasturlarining moliyalashtirish manbalari aniqlanishi, indikatorlar ijrosi ichki audit xizmatlari tomonidan baholab borilishi hamda vazirlik va idoralarning parlament oldidagi hisobdorligi oshirilishi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, Budjetnomada dasturiy budjetlashtirishga oid amaliy ilovalar ham berilgan bo'lib, ayrim vazirliklar kesimida budjet dasturlari, quyi dasturlar va ularning yakuniy hamda bevosita natija ko'rsatkichlari keltirilgan. Bu Budjetnoma dasturiy budjetlashtirishni nazariy deklaratsiya darajasidan amaliy budjet hujjati darajasiga olib chiqqanini ko'rsatadi.

Normativ bazaning yana bir muhim bloki — bu nazorat, audit va raqamlashtirishga oid hujjatlardir. Bu yerda, avvalo, Prezidentning 2025-yil 18-dekabrda PF-252-son Farmoni alohida ahamiyatga ega. Ushbu hujjat davlat auditi va moliyaviy nazorat faoliyatini takomillashtirish, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, investitsiya loyihalarini monitoring qilish hamda ayrim davlat organlari va tashkilotlarida Hisob palatasi bosh inspektorlari instituti orqali maqsadli va samarali sarf ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatishni nazarda tutadi. Mazkur Farmon bevosita dasturiy budjetlashtirish to'g'risidagi hujjat bo'lmasada, budjet dasturlarining ijrosi va davlat xarajatlari samaradorligini nazorat qilish infratuzilmasini kuchaytirishi bilan dasturiy budjetlashtirishning institutsional muhitini to'ldiradi.

Shuningdek, dasturiy budjetlashtirishning hisobdorlik va shaffoflik tomoni davlat organlari faoliyatining ochiqligini tartibga soluvchi hujjatlar bilan ham bog'liq. Garchi ular budjet dasturlarini ishlab chiqish tartibini to'g'ridan-to'g'ri belgilamasada, budjet ma'lumotlarini e'lon qilish, parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda davlat organlari faoliyatini ochiqlik indeksi asosida baholash orqali natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishning tashqi hisobdorlik muhitini kengaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, 2014-yildagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun va 2022-yilda PF-154 asosida joriy etilgan ochiqlik indeksini qo'shimcha normativ fon sifatida ko'rish mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistonda dasturiy budjetlashtirishning normativ-huquqiy bazasi allaqachon ko'p pog'onali shaklga ega bo'lib ulgurgan. Budjet kodeksi umumiy huquqiy asosni, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va 210-son qaror strategik yo'nalishni, 4-son Nizom protsessual mexanizmi, O'RQ-1105 hamda PQ-388-yillik budjet jarayonidagi amaliy joriy etishni, Budjetnoma esa o'rta muddatli fiskal rejalashtirish va konkret budjet dasturlari kesimidagi ifodasini ta'minlaydi. PF-252 esa ushbu tizimning nazorat-audit infratuzilmasini kuchaytiradi.

O'zbekistonda budjet dasturlarini monitoring qilish va baholash mexanizmlari vazirlik va idoralar, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, ichki audit xizmatlari, Vazirlar Mahkamasiga, Hisob palatasi hamda Oliy Majlis o'rtasidagi o'zaro bog'liq jarayonlar asosida shakllangan. Amaldagi tartibga ko'ra, budjet dasturlari vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishiladi hamda tasdiqlanadi. Ayrim vazirlik va idoralar bo'yicha 2026–2028-yillar uchun budjet dasturlari tasdiqlanib, ro'yxatdan o'tkazilishi, boshqa subyektlar bo'yicha esa keyingi bosqichlarda ishlab chiqilishi belgilangan.

Mazkur tizimda monitoringning asosiy instrumenti sifatida maqsadli indikatorlar qo'llaniladi. Budjetnomaga muvofiq, har bir budjet dasturi uchun kelgusi uch yilga mo'ljallangan indikatorlar belgilanadi va ularning ijrosi kuzatib boriladi. Shu bilan birga, dasturlar bo'yicha moliyalashtirish manbalari ham aniq ko'rsatiladi, bu esa monitoringni natija va resurslar bilan bog'liq holda olib borishga xizmat qiladi.

Baholashning amaldagi asosiy mexanizmi esa ichki audit hisoblanadi. Amaldagi hujjatlarga ko'ra, maqsadli indikatorlarning ijrosi ichki audit xizmatlari tomonidan baholanadi, rivojlantirish dasturlarining samaradorligi bo'yicha hisobotlar esa hisobot choragidan keyingi o'yning 20-sanasi qadar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etiladi. Shu tariqa, budjet dasturlarining birlamchi baholovchi instituti sifatida ichki audit xizmatlari maydonga chiqadi.

Hisobotlarning keyingi bosqichi markazlashtirilgan umumlashtirish bilan bog'liq. Iqtisodiyot va moliya vazirligi maqsadli indikatorlar va budjet dasturlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni umumlashtirib, Vazirlar Mahkamasiga kiritadi, undan so'ng ular Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga taqdim etiladi. Shunday qilib, monitoring va baholash natijalari hukumat va parlament darajasidagi ko'rib chiqish jarayoniga olib chiqiladi.

Amaldagi tizimda Hisob palatasi muhim o'rin tutadi. U budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlarning bajarilishi yuzasidan tashqi audit xulosasini taqdim etadi. Biroq ushbu mexanizm ko'proq audit va nazorat xarakteriga ega bo'lib, budjet dasturlarining ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini baholovchi mustaqil baholash shakliga to'liq tenglashmaydi.

Shuningdek PQ-388 da, dasturiy budjetlashtirishni amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun ayrim vazirlik va idoralarda budjet dasturlarini shakllantirish, monitoring qilish va ijrosini muvofiqlashtirish bo'limlarini tashkil etish nazarda tutilgan. Amaldagi mexanizmlar budjet dasturlarini ishlab chiqish, indikatorlar asosida monitoring qilish, ichki audit orqali baholash hamda hisobotlarni hukumat va parlament darajasida ko'rib chiqish zanjiri asosida ishlaydi. Biroq ushbu tizimda asosiy urg'u hozircha monitoring va ichki auditga qaratilgan bo'lib, mustaqil baholash mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan.

Amaldagi tizim tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda budjet dasturlarini monitoring qilish va baholash mexanizmlari shakllangan bo'lsada, ularning mazmunan to'liq natijaga yo'naltirilgan baholash tizimiga aylanishi hali yakunlanmagan.

Birinchi muammo — budjet dasturlarini baholash metodologiyasi va maqsadli ko'rsatkichlar tizimining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidir. 2024-yil 4-yanvardagi 4-son Nizomda budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoring qilish va samaradorligini baholash tartibi belgilangan bo'lsada, baholash mezonlari, ko'rsatkichlarga baho berish usuli va ularning ahamiyat darajasini aniqlash tartibi yetarli darajada aniq ko'rsatilmagan. Xuddi shuningdek, Budjetnomada har bir budjet dasturi uchun uch yillik maqsadli ko'rsatkichlar belgilanishi nazarda tutilgan bo'lsada, bu ko'rsatkichlarning qaysilari yakuniy natijani, qaysilari joriy ijroni ifodalashi, ularning to'g'riligi qanday tekshirilishi va yagona mezon asosida qanday baholanishi batafsil ochib berilmagan. Natijada ko'rsatkichlar ko'proq hisobot yuritish vositasi sifatida ishlashi, lekin haqiqiy natijadorlikni to'liq aks ettirmasligi mumkin.

Ikkinchi muammo — baholash tizimining asosan ichki auditga tayanganligi va mustaqil tashqi baholash mexanizmining shakllanmaganligidir. Budjetnoma 2026–2028 hamda 2026-yil Davlat budjeti to'g'risidagi O'RQ-1105-son Qonunda maqsadli ko'rsatkichlarning bajarilishi ichki audit xizmatlari tomonidan baholanib borilishi belgilangan. Bu amaldagi tizimda ichki

auditning asosiy baholovchi bo'g'in sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Biroq ichki audit vazirlik va idoralarning o'z ichki tuzilmasi bo'lgani sababli, u to'liq xolis va mustaqil tashqi baholash o'rnini bosa olmaydi. Shu bilan birga, 4-son Nizomda, Budjetnomada va O'RQ-1105-son Qonunda budjet dasturlarining natijalarini mustaqil ekspertlar, ilmiy tashkilotlar yoki alohida baholovchi tuzilmalar orqali o'rganish tartibi nazarda tutilmagan. PQ-388-son qarorda Hisob palatasining tashqi audit xulosasi parlamentga kiritilishi belgilangan bo'lsada, bu mexanizm asosan audit va nazorat xarakteriga ega. Ya'ni unda mablag'larning to'g'ri va maqsadli sarflanishi ustidan nazorat kuchli, biroq dastur qanday natija bergani va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri mustaqil ravishda chuqur baholanmaydi. Shu sabab amaldagi tizimda audit mavjud bo'lsada, budjet dasturlarining natijadorligini xolis baholaydigan mustaqil mexanizm hali to'liq shakllanmagan.

Uchinchi muammo — baholash natijalarining budjet qarorlari va xarajatlar samaradorligi bilan yetarli darajada bog'lanmaganligidir. O'RQ-1105 va PQ-388-son hujjatlarda hisobotlarni tayyorlash, umumlashtirish va parlamentga taqdim etish tartibi aniq belgilangan. Ammo past natija ko'rsatgan dasturlarni qisqartirish, qayta ko'rib chiqish, o'zgartirish yoki ularga ajratiladigan mablag'ni kamaytirish tartibi aniq ko'rsatilmagan. Ya'ni tizimda hisobot bor, muhokama bor, lekin baholash natijasi asosida amaliy moliyaviy qaror qabul qilish mexanizmi yetarli darajada mustahkam emas. Shu bilan birga, 210-son qarorda budjet mablag'lari samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan, Budjetnoma va 4-son Nizomda esa dasturlar va ularning moliyalashtirish manbalari qayd etilgan. Lekin ajratilgan mablag' evaziga aynan qanday natija olingani, ya'ni xarajat bilan natija o'rtasidagi nisbatni aniq hisoblash tartibi belgilanmagan. Shu bois mablag' sarfi bilan yakuniy natija o'rtasidagi bog'liqlik zaifligicha qolmoqda.

To'rtinchi muammo — budjet dasturlarini boshqarishda xavflarni oldindan baholash va axborot tizimlaridan samarali foydalanish mexanizmlarining yetarli rivojlanmaganligidir. 4-son Nizom va Budjetnomada dasturlarni ishlab chiqish, monitoring qilish va hisobot yuritish tartibi mavjud bo'lsada, har bir dastur bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni oldindan aniqlash, ularni baholash va kamaytirish choralari aniq ko'rsatilmagan. 210-son qarorda fiskal xatarlarni boshqarish bo'yicha normalar bor, ammo ular ko'proq umumiy moliyaviy xatarlarga qaratilgan. Shuningdek, 210-son qaror, Budjetnoma va PF-252-son Farmonda axborot tizimlaridan foydalanish, hisobotlarni raqamlashtirish va tahliliy ma'lumotlarni kengaytirish nazarda tutilgan bo'lsada, turli ma'lumotlar bazalari o'rtasida to'liq bog'langan yagona tizim hali shakllanmagan. Shu sabab xavflarni erta aniqlash, ma'lumotlarni tezkor solishtirish va natijalarni chuqur tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan.

Xorijiy tajriba tahlili ushbu kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bir nechta amaliy xulosalarni beradi. Birinchidan, budjet dasturlarini boshqarishda monitoring, audit va baholash funksiyalarini normativ jihatdan aniq ajratish zarur. Buyuk Britaniyada Green Book qaror qabul qilishdan oldingi variantlarni xarajat, foyda va risklar bo'yicha baholashga xizmat qiladi, Magenta Book esa baholashni dastur yoki siyosatning dizayni, amalga oshirilishi va natijalarini tizimli o'rganish sifatida talqin qiladi. Ya'ni appraisal va evaluation bir-birini to'ldiradi, lekin aynan bir xil jarayon deb qaralmaydi. Shu bois O'zbekistonda ham monitoringni joriy ijro nazorati, auditni moliyaviy intizom va qonuniylik nazorati, baholashni esa natijadorlik va ta'sirni aniqlovchi alohida funktsiya sifatida mustahkamlash maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, mustaqil tashqi baholash mexanizmini joriy etish zarur. Chili tajribasida DIPRES huzuridagi dasturlar bahosi kamida uch nafar davlat sektoridan tashqaridagi mutaxassislardan iborat tashqi ekspertlar paneli tomonidan amalga oshiriladi; baholovchilar maxsus ro'yxat va tanlov asosida shakllantiriladi. Bu yondashuv dastur ijrosini emas, balki uning natijasi, dizayni va samarasini xolis baholash imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida yirik va ijtimoiy ahamiyatga ega budjet dasturlari bo'yicha Hisob palatasi, ilmiy muassasalar va mustaqil ekspertlar ishtirokidagi aralash modelni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, maqsadli ko'rsatkichlar metodologiyasini kuchaytirish lozim. Kanada tajribasida Treasury Board'ning Policy on Results hujjatlari doirasida Departmental Results Framework moliyaviy va nomoliyaviy natija axborotini estimates va parlament hisobotlari bilan bog'laydi. Bu tizimda natija ko'rsatkichlari shunchaki statistik ma'lumot emas, balki resurslar, dasturlar va hisobdorlik o'rtasidagi bog'lovchi mexanizm sifatida ishlaydi. Shu asosda O'zbekistonda ham ko'rsatkichlarni kirish resurslari, mahsulot, natija va ta'sir darajalari bo'yicha tasniflash, ularning ma'lumot manbalarini va sifat mezonlarini yagona uslubiyot asosida belgilash zarur.

To'rtinchidan, baholash natijalarini budjet qarorlari bilan bog'lash kuchaytirilishi kerak. OECD ma'lumotlariga ko'ra ko'pchilik mamlakatlarda performance budgeting "performance-informed budgeting" shaklida qo'llanadi, ya'ni natija axboroti moliyaviy ma'lumotlar bilan birga keyingi budjet qarorlarini asoslash uchun ishlatiladi. Chili tajribasida ham baholash natijalari resurslarni qayta ko'rib chiqish va dasturlarni takomillashtirish uchun daliliy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda ham baholash natijalariga ko'ra moliyalashtirish hajmlarini qayta ko'rib chiqish, past natijali dasturlarni optimallashtirish, birlashtirish yoki qayta loyihalash tartibini normativ jihatdan belgilash lozim.

Beshinchidan, budjet dasturlarini baholash tizimini qo'llab-quvvatlovchi institutsional salohiyat va raqamli infratuzilmani bir vaqtda rivojlantirish zarur. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, sifatli baholash tizimi faqat normativ hujjatlar bilan emas, balki malakali kadrlar, uslubiy qo'llanmalar, doimiy o'quv dasturlari va zamonaviy axborot tizimlari bilan birgalikda ishlaydi. Buyuk Britaniyada baholash salohiyatini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv va metodik yondashuvlar hukumat xodimlarining natijalarni tahlil qilish, sharhlash va baholash ko'nikmalarini kuchaytirishga xizmat qilsa Janubiy Koreyada d-Brain kabi integratsiyalashgan raqamli tizimlar budjet ma'lumotlari, ijro natijalari va nazorat axborotini yagona platformada birlashtirish imkonini beradi. Shu sabab O'zbekistonda ham budjet dasturlari bilan ishlovchi bo'linmalarni ko'rsatkichlarni ishlab chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilish va baholash bo'yicha muntazam o'qitish bilan birga, indikatorlar ijrosi, ichki va tashqi audit xulosalari hamda baholash natijalarini yagona elektron platformaga integratsiya qilish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, budjet dasturlarini baholashni dastur amalga oshirilishining barcha bosqichlariga kiritish zarur. Germaniya amaliyotida Federal budjet kodeksining (§ 7 BHO) iqtisodiylik va tejamkorlik tamoyili asosida moliyaviy ta'sirga ega chora-tadbirlar bo'yicha baholash faqat yakuniy hisobot bilan cheklanmaydi Rasmiy ko'rsatmalarda bunday baholash uch bosqichda olib borilishi nazarda tutiladi: rejalashtirish bosqichidagi dastlabki tahlil, amalga oshirish davridagi joriy baholash va dastur yakunlangandan keyingi yakuniy baholash. Joriy baholash dastur ijrosi davomida maqsadlarga erishish darajasini, zarur bo'lsa tuzatish kiritish ehtiyojini aniqlashga xizmat qiladi, yakuniy baholash esa dastur o'z maqsadiga erishgan-erishmaganini, unga aynan shu chora sabab bo'lgan-bo'lmaganini va u iqtisodiy jihatdan o'zini oqlagan-oqlamaganini ko'rsatadi. Germaniya hujjatlarida joriy va yakuniy baholashdan alohida ravishda monitoring ham qayd etilib, u doimiy kuzatuv vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu sabab O'zbekistonda ham budjet dasturlari bo'yicha baholashni faqat yakuniy hisobot bilan cheklamasdan, dastur boshlanishidan oldingi dastlabki baholash, amalga oshirish jarayonidagi oraliq baholash va yakuniy natijadorlik bahosini o'z ichiga olgan uch bosqichli tizimni joriy etish tavsiya etiladi.

Xulosalar va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda dasturiy budjetlashtirishni joriy etish bo'yicha muhim normativ-huquqiy asos yaratilgan va budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoring qilish hamda hisobot yuritish mexanizmlari shakllantirilgan. Biroq amaldagi tizimda baholash ko'proq monitoring va ichki auditga tayangan bo'lib, mustaqil baholash, aniq metodologiya, natijalarni budjet qarorlariga bog'lash hamda xavflarni oldindan baholash mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, dasturiy budjetlashtirish samaradorligi baholash funksiyalarini aniq ajratish, mustaqil baholashni joriy etish, ko'rsatkichlar sifatini oshirish va baholash natijalarini resurs taqsimoti bilan bog'lash orqali ta'minlanadi. Shu sabab O'zbekistonda budjet dasturlarini baholash tizimini takomillashtirish dasturiy budjetlashtirishni to'liq natijaga yo'naltirilgan boshqaruv instrumentiga aylantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Abduganiyev (2026). U. *The role of program-based budgeting mechanisms in ensuring state financial security* // *Innovation Science and Technology*. Vol. 2. No. 3.

Curristine T. (2005). *Performance Information in the Budget Process: Results of the OECD 2005 Questionnaire* [Electronic resource]. Washington, DC: International Monetary Fund, URL: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/tnm/2009/tnm0901.pdf>

OECD. (2018). *Incentivising Performance in Public Investment Policies Delivered at National and Subnational Level* [Electronic resource]. Paris: OECD Publishing, . URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/03/incentivising-performance-in-public-investment-policies-delivered-at-national-and-subnational-levels_66ea553f/0e7cd4af-en.pdf

OECD. *OECD Good Practices for Performance*(2019). *Budgeting* [Electronic resource]. Paris: OECD Publishing, URL: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2019/05/oecd-good-practices-for-performance-budgeting_0a446f98/c90b0305-en.pdf

OECD. *Performance Budgeting* [Electronic resource]. URL: <https://www.oecd.org/en/topics/performance-budgeting.html>

Robinson M. A (2016). *Basic Model of Performance-Based Budgeting* [Electronic resource]. Washington, DC: International Monetary Fund, 2011. URL: <https://www.imf.org/en/publications/tnm/issues/12/31/a-basic-model-of-performance-based-budgeting-23247>

World Bank. *Performance Budgeting and Medium-Term Expenditure Frameworks in Emerging Economies* [Electronic resource]. Washington, DC: World Bank. URL: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/03409516-9c1f-5cac-bb89-721c11e908fc>

World Bank.(2013). *Performance-Informed Budgeting in Middle-Income Countries* [Electronic resource]. Washington, DC: World Bank, URL: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/627581468322141749>

Атанязов Ж., Аллакулиев А (2022). *Среднесрочное бюджетирование, ориентированное на результат, в сфере школьного образования* // *Экономика и инновационные технологии*. . № 4. С. 118–126.

Молчанова Н. П. (2016). *Особенности управления формированием бюджета: методический и практический опыт Республики Казахстан и его применимость в России* // *Экономика и предпринимательство*. № 10-1. С. 120–126.

Мухитдинов З. Д., Абдуллаев Ш. Ш. (2020). *Программно-целевой метод и возможности его использования при формировании государственного бюджета* // *Экономика и финансы*. № 6. С. 45–52.

Нурмухамедова Б., Урунова Г. (2023). *Правовые аспекты реализации инициативного бюджетирования в Узбекистане* // *Jamiyat va innovatsiyalar*.T. 4. № 6. С. 95–103.

Срождидинова З. Х. (2021)*Система государственных финансов: реформа управления, направления совершенствования в Республике Узбекистан* // *Экономика и предпринимательство*. № 7. С. 233–239.